



UDK: 94:323 (575.1)1925/1935

Sayyora TURAYEVA,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Universiteti professori, t.f.d

E-mail: turayevasayyora9@gmail.com

THE SIGNIFICANCE OF ALISHER NAVOI'S WORKS IN THE STUDY OF MILITARY HISTORY

Annotation

This article analyzes the views of the great statesman, Timurid minister Husayn Bayqara in Khorasan, poet, and thinker Alisher Navoi (1441–1501) on strengthening the state's defense capability, the characteristics of a military man, as well as his views on military art, army structure, and ways to enhance the spirituality of those serving in the military.

Keywords: military history, combat tactics, ruler-commander-in-chief, warrior, military work, warrior spirituality.

HARBIY TARIXNI O'RGANISHDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk davlat arbobi, Temuriylardan Xusayn Bayqaroning Xurosondagi hokimiyati vaziri, shoir, mutafakkir Alisher Navoiyning (1441-1501) davlat mudofaa qobiliyatini kuchaytirish, harbiy xizmatchiga xos xususiyatlariga oid qarashlari hamda harbiy jang san'ati, qo'shin tuzilishi, harbiy xizmatchilarning ma'naviyatini oshirish yo'llari haqidagi fikrlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: harbiy tarix, jang taktikasi, hukimdor- bosh qo'mondon, askar, harbiy ish, askarlar ma'naviyati.

ЗНАЧЕНИЕ ТРУДОВ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ ВОЕННОЙ ИСТОРИИ

Аннотация

В статье анализируются взгляды великого государственного деятеля, министра власти Тимурида Хусейна Байкара в Хорасане, поэта, мыслителя Алишера Навои (1441–1501) на укрепление обороноспособности государства, характеристики военнослужащего, а также его взгляды на военное искусство, структуру армии и пути повышения духовности военно служивших.

Ключевые слова: военная история, тактика ведения боя, правитель-главнокомандующий, воин, военный труд, духовность воинов.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Alisher Navoiy ilmiy meroasi ko'pgina adabiyotshunos olimlar tomonidan o'rganilgan. Uning asarlaridagi tarixiy faktlar XV- XVI asrlardagi tarixiy jarayonlarni aks ettirishda foydalanilgan. Xususan, adabiyotshunos olimlardan 1930-1940 yillarda Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, M. Shayxzoda, V. Abdullaev, A. Borovkov, Ye.E.Bertels, H. Olimjon, X. Zarif, O. Usmonov o'rgandilar va maqolalarida Navoiy yashagan darv ma'lumotlarini aks etdirdilar. So'nggi yillarda O. Sharafuddinov, P. Shamsiyov, N. Mallaev, V. Zohidov, I. Sulton, H. Sulaymonov, A. Qayumov, S. G'anieva, A. Rustamov, A. Hayitmetov, A. Abdug'ofurov, S. Erkinov, B. Valixojaev, Yo. Is'hoqov, N. Komilov, R. Vohidov, M. Hakimov, L. Zohidov kabi olimlar Navoiyshunoslik taraqqiyotiga alohida hissa qo'shdilar. Navoiy merosini o'rganish bugungi kunda ham ko'plab olimlar tomonidan davom ettirilmoqda.

Navoiyni xorijiy davlatlarda o'rgangan olimlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Fransuz sharqshunosi Katmer, rus olimi I.N. Beryozin, sharqshunos V.V.Velyaminov, fransuz olimi Pavi de Kurteyl, nems olimi X. Purshtall va boshqa ko'plab olimlar o'rgangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Alisher Navoiy XV asr mumtoz adabiyot vakili qomusiy bilimlar sohibi mutafakkirdir. Ushbu davlat arbobi o'rta asr siyosatshunosligi bo'yicha chuqur bilimlar sohibi hisoblanadi. O'tmishdagi davlatlar siyosati bu tarixdir. Tarixda davrlar osha fikrlash, har bir ijtimoiy siyosiy hodisa kelib chiqish genezisiga ega va retspektiv yondashuv yo'li bilan metodologik o'rganiladi. Alisher Navoiyning ilmiy merosida harbiy sohaga oid bilimlarning ilgari surilishi uning davlat qudrati harbiy qo'shin holati, unda harbiy xizmatchilarni

tayyorlash an'analari o'zining tarixiy ildizlariga ega ekanligi, bu sohadagi o'tmish qadryatlar asosida darvar sinovidan o'tgan harbiy merosda zamon va makon tanlamas tushunchalarning bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir. Tadqiqotda tarixiy tahlil, germenevtika, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanilgan.

Kirish. Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida erishayotgan barcha yutuq va marralarimizda Qurolli Kuchlarimiz va ularning saflarida o'z vazifasini sidqidildan ado etayotgan ming- minglab harbiylarimiz hissa qo'shib kelmoqda. O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2024 yil 14 yanvardagi O'zbekiston qurolli kuchlarining tashkil etilgan bayram tabrigidagi "Qurolli kuchlarimiz-mamlakatimiz taraqqiyoti, tinchligi va barqarorligining ishonchli kafolati" ma'ruzasida "Buyuk Amir Temur bobomiz aytganidek, g'alaba taqdirini, avvalo, qo'shinning jangavor ruhi va tayyorgarligi, ma'naviy qudrati va mustahkam irodasi hal qiladi" degan fikriga tayanib, milliy armiyamiz saflarini qo'rqmas, dovyurak, jasoratli, fidoyi, ma'tonatli, vatanparvar, man'anviy dunyoqarashi keng harbiy xizmatchilar bilan shakllantirish vazifasini qo'ydi. Harbiy xizmatchilarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda zamonaviy bilimlar bilan birga ajdodlarimiz ma'naviy merosidagi zamon va makon tanlamas o'g'itlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk davlat arbobi, shoir, mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) o'z davrida jamiyat tuzilishini, hukmdorlari-yu turli aholi qatlamini o'rganib o'z ma'naviy merosida ularni aks ettirishga harakat qilgan. Navoiy Temuriylar mulki hisoblangan Xurosonda Husayn Boyqaro hukmronligida (1469-1506) mamlakatda muhrdor (1469-1472), vazir (1472-1476), Astrobot hokimi (1476-1478) bo'lib faoliyat ko'rsatgan.

Tahlil va natijalar. Alisher Navoiy qo'shinlar muhoralari to'qnashuvlarini hukmdor yonida turib ko'p kuzatgan. Jang maydonida qo'shinni qanday joylashtirish, jang taktikasini, qo'shin tarkibi va tuzilishini yaxshi bilgan shaxs edi. O'z ma'naviy merosida jang tafsilotlar bayonida, davlat mudofaa qobiliyatini kuchaytirish, harbiy xizmatchiga xos xususiyatlar borasida qimmatli tavsiyalar bera olgan.

Xususan, "Hayrat ul-abror" asarida Husayn Boyqaroning o'g'li, shahzoda "Sulton Badiuzzamonga nasihat" bobida[1] hukmdor mamlakat mudofaasini qanday tashkil etishi lozimligi va davlat boshqaruv ishlarida bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan tavsiyalar beradi. Ya'ni "urush kuni dushman tomoniga qarshi yurish boshlaganingda, tezda to'ra bilan yosolingni tuz (urush yaroqlarini hozirga), urushda hujumga o'tib, bexato zarba ber. O'limdan qo'rqma, chunki taqdirsiz hech kim o'lmaydi. Alam yetganda, ikki qadam chekinguncha harakat qilib, bir qadam ilgari qo'y. Zafar Haq lutfidan bo'ladi, xatti-harakat, jasoratga ham ahamiyat ber. Shunday yurish qilginki, sipoh cheksang, lashkar to'plasang, xalqning duosi senga panoh bo'lsin. Urushda g'olib chiqsang bu shukrona uchun mag'lublarni o'ldirishga qasd etma. Otangni jang tajribalaridan o'rgan. Xulosa qil"[1] -deb, otasi ham avvalgi qo'mondon ekanligiga ishora berib, tajribali qo'mondonlarni ustoz bilishga da'vat etadi.

Yana davlat ishlarini yuritishda "maqsadga yetish uchun hamisha adolat bilan ish qil. Yoy o'qi tekis, to'g'ri bo'lmasa ucholmaydi. Odamlarni tezda mansabda ko'tarmagin, ham ozgina aybi uchun pastga tushirmagin- mansabini pasaytirmagin. Shoh adolat bilan ish yuritsa, adaolat uning vayron bo'lgan mamlakatini obod etadi"[1] - deb, ta'kidlaydi Navoiy.

Navoiyning ba'zi asarlarida jang taktikasini ham tasvirlanadi. Xususan, "Farxod va Shirin" dostonida shahar mudofaasi haqida ma'lumotlar beradi. "... Xisrav o'z qo'shinlariga shaharni bosib olish haqida buyruq berdi. Sipohlar qo'rg'onni qamab, unga hujum boshladi. Shahar aholisi qo'rg'onni himoya qilishga kirishdi. Sipohlar kunduziyu kechasi hushyorlik bilan jangga hozir turishar, tunlari mash'alalar bilan qal'ani yoritishardi"[2]. Ushbu ma'lumotdan qo'shinda asosiy hujumchi – "sipohlar" deb tilga olinmoqda.

Navoiy asarlarida harbiy xizmatchilar "harb ahli", "sipohlar", "navkarlar", "lashkar", "yasovul", "cherik" kabi nomlarda tilga olinadi. Harbiylar faoliyatiga dahildor so'zlarni Navoiy ijodida qo'llanilishiga e'tibor qaratsak. "Harb" [3]– so'zi urush, jang ma'nosini anglatadi[4]. Navoiy asarlarida quyidagicha qo'llanadi: Uryu ul harbda shahid bo'ldi. Razm maydonidakim ikki tarafdin ahli harb, bosh ila jon tarkin ajab hangomadur[5].

Harb ahli-jang qiluvchilar askarlar. Navoiy asarlarida quyidagicha qo'llangan: Harb ahlig'ai urush rosnini o'zib, ko'p o'yum ham bir-biriga ko'rguzub[6].

Harb ko'si - jang paytida chalinadigan nog'ora, dovun. Navoiy asarlarida quyidagicha qo'llangan:

Chalindi bu kishvarla ko'si roxil[7].

Harb et- kurashmoq, jang qilmoq:

Ayoli vatan uzra to joni bor,

Kishi harb etar toki imkoni bor.

Harba - nayza ma'nosini anglatadi. Navoiy asarlarida quyidagicha qo'llangan: "Sinon va harba pichoq ba'zi habba ham debturlar. Qalqon ham debturlarkim ul yasadi"[3].

"Yasovul" – yasavul – yo'l soqchisi, amaldor shaxsni kuzatib boruvchi soqchi [9]degan ma'noni beradi.

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida jamiyatdagi turli kasb-hunar, mansab va lavozimlar ta'rifini berish bayonida mahsus harbiylarga bag'ishlangan "Yasovul guruhi zikrida", "yasog'liq va qora cherik zikrida" degan fasllar (boblar) mavjud. Sakkizinchi fasl yasovul guruhi tavsifiga

bag'ishlanib, unda quyidagilar qayd etiladi: "Yasovul-jabr ko'rganlarni zolimdan qutqargay. Xizmat haqi imkoniyat boricha so'raganicha berilgan. Ular hukmdorga o'rtoqdir. (Barcha hatti-harakati hukmdorga bo'ysunadi). Ular xizmatiga yarasha taqdirlanib, ushbu mukofot ota merosi va ona sutiday halol deb hisoblanadi. Chunki ular o'z jonini tahlikaga qo'yib jang maydoniga chiquvchi insonlardir. Agar ularning ehtiyojlari talab etgan darajada ta'minoti bo'lmasa, ular jangushijoatda mohir bo'lolmay, zaif bo'lishi mumkin"- deb ta'riflaydi[10].

Shu o'rinda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning "Qudratli mamlakatning askarlari ham kuchli va baquvvat bo'ladi, doimo shunga erishishga harakat qilishimiz lozim" degan ta'biri xotiraga keladi.

Yana Navoiy yasovullar haqidagi fikrini davom ettirib, "Agar harbiy xizmatchi xizmatini mohirlik bilan o'zlashtirsa, astoydil harakat qilsa, vijdonan xizmatni ado etishga urinsa u shaxsga xizmat haqi adolatdan berilishi lozim. O'z xizmatini vijdonan o'tagan harbiy xizmatchini avliyo deb talqin qilsa bo'lguday. Ko'p mard erkaklar bu ish faoliyatini muqaddas bilib, shu yo'l bilan maqsadga yetadilar"[10] - deydi.

Ma'snaviy:

Avliyullohki, har suratda bor,

Ba'zi etmish bu ravishni ixtiyor,

Chun erurlar qubbalari ichra nihon,

Haqdin o'zga kimsaga ermas ayon[10].

Ma'nosi: Avliyolikni ba'zi shaxslar o'z ixtiyorlari bilan tanlaydilar. Ular (askarlar yon xaltasi qubba- ichidagi anjomlar- (idish-tavoq) singari) har shahar va qishloqda yashirin mudofaaga shay turadilar. Ular soni va ertaning taqdiri xudodan o'ziga ayon emas- deb ta'riflanadi.

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida to'qqizinchi fasl "Yasog'lik va qora cheriklik zikrida" nomlanadi.

Lug'atda yasoqiy- "askar" ma'nosida qo'llaniladigan so'z bo'lib, siyosat, tartib, qonunni qo'riqlovchi[9] degan ma'nolarni anglatadi. Huddi shu kabi "cherik"- so'zi ham askar ma'nosini anglatadi[9].

Bu turdagi harbiy xizmatchilar yollanma qo'shin bo'lib, mahsus tayyorgarlikdan yasovullar kabi o'tmagan edi. Bu turdagi harbiy xizmatchilar xizmatga kirishi bilan umri davomida oromi yo'q bo'lib, hukmdorlar lashkar tortib qaergaki boradigan bo'lsa, ular shu maqsad yo'lida ishtirok etuvchilardir. Mutafakkir bunday yollanma harbiy xizmatchilar bozordagi tosh-tarozini, tartib-qoidalarni nazorat qiluvchilikka ham safarbar etilganini eslatib o'tadi. Ushbu harbiy xizmatchilar vazifalari bosqinchilik urushlarida talay olgan cha talonchilikdir[10:19]- deb o'z davridagi ushbu harbiy xizmatchilar xatti-harakatlarini qoralaydi.

Navoiyning fikricha, lashkarlar ma'naviyatini oshirish uchun sayi-harakatlar qilinishi lozim. Ularni ahloq odob, insoniylik, halollik, adolatparvarlik, xalqchilik kabi fazilatlarini doimo shakllantirib, rivojlantirib borishni tavsiya etadi. Ular o'z aql-idroki, fahmu-farosatini o'stirib borish uchun ko'p o'qib, o'rganishi darkorligiga ishora beradi. Inson tafakkuri va aql-idroki, farosati tufayli boshqa mavjudotlardan farq qilishini ta'kidlaydi.

Navoiy merosining ba'zi qismlarida jangovar safarbarlik vaqtlarida jang maydonlarida harbiy qo'shin joylashuviga doir misollar beradi. Xususan, "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandarni – buyuk sarkarda sifatida ta'riflaydi. Uning ba'zi jang taktikalarini tahlil qiladi. Ya'ni "... Shoh bo'lsa, ko'zidan uyqu qochib, elga yaxshi so'zlar bilan madad berib, g'alabaga ishonch hosil qilib, qo'rqayotganlarga umid bag'ishlardir. Sipohlari esa tinmay sovut, dubulg'a, nayza kabi urush qurollarini yasash bilan ovora edilar. Doro Iskandarga

qarshi qo'shinni rostlardi. Doro qo'shininito'qiz marta qaytadan tuzdi"[2].

Doroning qo'shin tuzilishi haqida quyidagilarni alohida ko'rsatadi: "Qo'shinning o'ng qanotida Mashriq zamin sipohlari o'rin olgan bo'lib, bu lashkar Chin sarhadidan Samarqandgacha cho'zilgan edi. Ularning yonida yuz ming o'zbek bilan mo'g'il saflangandir. Yuz ellik ming qalmoq ham ular bilan yonma-yon turardi. Barchasi olti yuz ming sipoh bo'lib, barchasi ham urish ishini hunar qilib olgan edi. Yetti rang zarboft kiyim kiygan Chin sipohlari jangga hozir bo'lib turar. Ular ichida ko'plab zirhli temir kiyim sovut kiyganlari ham ancha edi. Ular bilan safdosh bo'lib mang'it, Movarounnahrda 10 shahar eli saflanishgandi.

Qo'shinning so'l qanotida Marg'ib eli saf tortgan bo'lib, temir kiyimlari, nayza-yu, qalqonlari, dubilg'alari sarig' rangda edi. Arab otiqlari qirqi ming uchqur ot ustida mag'rur turur. Ular qora ipaklardan kiyim kiyib olishgan edi. Hatto bayroqlarigacha qora rangli edi. So'l qanoat ham 700000 sipohdan tashkil topgandi. Doro qo'shinining hujumchi- ilg'or qismi- hirovul yetti yuz ming kishidan tashkil topgan bo'lib, bari oq kiyimdagi dashti Qipchoq eli, Xorazm ahliidan tuzilgandi. So'l qo'shin markazdagi saflarning har biri yuz ming nafardan tashkil topgan bo'lib, barchasi shohga yaqin odamlardan bo'lgani uchun yashil kiyim kiyib olishgan. Doro ham ular ichida edi"[2].

Navoiy jangga kirishdan oldingi qo'shin tartiblanishiga ahamiyat beradi va uning tarkibida kiyimboshlar bir biridan farqlangan qo'shinni ajratib ko'rsatadi. Qo'shin tarkibida ba'zi bo'linmalarini o'rta asrlardagi an'analarga ko'ra nomlanishlariga ko'ra tilga oladi.

Iskandar qo'shinlari ta'rifida quyidagilarni qayd etadi: "Shoh o'ng qanotga fransuz askarlarini belgiladi. Ular dushmanning qalin ko'p emasligini bilishmas, bilsalar ham ularni ko'zga ilishmasdi. Guharrang kiyim kiyib olgan faranglar yetti baxmal kiyimga o'rmasgan edi. Ulardan 100000 tasi g'oyat kuchli jangchilar sanaladi. So'l qanotni Iskandar Bartosu Rus sipohlariga ishonib topshirgan edi. Ularning o'zlari ham, otlari ham temir kiyimlarda edi. Hirovul markaziga esa habash sipohlar qo'shilgandi. Temir qalpoqlariga esa o'tag'a o'rnida shahparlar o'rnatilgan. Qo'shin markazi esa rumlik pahlavonlarga topshirilgandi. Qizil yuzli bu yigitlar o'zlarini yovga yanada dahshatliroq ko'rsatish uchun yo'lbars, qoplon, sher terilaridan ustilariga tashlab olgandilar. Rum shohi o'z lashkarlari bilan birga Eron qo'shini turgan maydonga qarab yo'l oldi. Qo'shin jilib borar ekan, karnaylar, nog'oralalar olamga na'ra solar. Hilpirayotgan ipak bayroqlar jilvagar bo'lib, ajoyib manzara hosil qilgan edi[2:349]".

Temuriylar davrida qo'shin qismlari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltiriladi. Navoiy davrida ham qo'shinni joylashtirishda temuriylar an'anasi davom etgan.

Temuriylar jangavor qo'shinida qoravul- otiqlar guruhidan iborat razvedka bo'lib, jang maydonida oldinda joylashtirilgan[12]. So'l qanot – juvang'ar, o'ng qanot – barang'ar, manglay- hiravul (ba'ida avangard deb ham yuritiladi) kabi nomlanishdagi qismlar tilga olinadi[12].

Navoiy asarlarida "jiba kiygan harb" iborasi - zirih kiyib, bir qo'lida qalqon, bir qo'lida qilich bilan jang qilgan harbiy xizmatchiga nisbatan qo'llanilgan.

Alisher Navoiy "Munshoat" asarida: "Davlat mulki qalin sipoh himoyasidadir" – deydi. Hukmdorga qarata aytadiki:

Aflokga taxti iqtidoring bo'lsun,
Anjumcha sipohi beshumoring bo'lsun,
Haq xifzu siyonati hisoring bo'lsun,
Ya'ni, bori ishta tangri yoring bo'lsun[13].

Ma'nosi: "Falakka yetadigan taxt va iqtidoring bo'lsin, har qanday mudofaa chizig'ini yorib o'tguvchi ko'p sonli

harbiy qo'shining bo'lsin, xudoning xalol deb byurgan ishlari amali, hushyorlik bilan mudofaa qilinadigan qo'rg'oning bo'lsin, har ishda xudo madakoring bo'lsin" – deydi.

Ushbu asardagi ma'lumotdan askarlar turli mahalliy hududdan bo'lishi, millatining turli-tumanligiga qaramasdan, e'tiqodi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar bir maqsad yo'lida qo'shin tarkabida yakdillik bilan harakat qilganligini anglash mumkin. Bugungi kunda harbiylarning dala mashq kiyimlaridagi tabiat bilan uyg'unlik, himoya rang ko'rinishidagi kiyim boshlari, Navoiy asarlarida tabiatdagi mavjudotlarga yaqinlashuv "yovga yanada dahshatliroq ko'rsatish uchun yo'lbars, qoplon, sher terilaridan ustilariga tashlab oldilar" deb tasvirlaydi. O'rta asrlarda ham qo'shinning musiqachilar qismi bo'lganligini ham eslatib o'tadi.

Alisher Navoiy bilan sodir bo'lgan bir hayotiy voqeani kuzatgan, uning katta kutubxonasida xizmat qilgan G'iyosiddin Xondamirning xotiralarida yozishicha: " Bir kuni Navoiy ko'pgina saroy amirlari huzurida arz qilib kelgan kishilarning arzlari tinglab o'tirganlarida, to'satdan sadrlik kabi oliy mansabga yetishgan Mavloni Qutbiddin Xavofiy kelib qoldi va o'ta bezovta bir holda, arz qilib kelgan kishilar orasidan joy oldida, oldin mening arzimga quloq soling, deydi.

Ul oliy Hazrat hol- ahvol so'rish va mehribonchilik ko'rsatish orqali janobi Mavlaviyning g'azabini so'ndirishga urindilar hamda uni o'z yonlariga o'tirg'izib, nimadan shikoyat qilib kelganini so'radilar. U shunday javob berdi:

Xoja Husayn Kirangiy meni qattiq haqorat qildi. U menga, sen ilgari Mavloni Muhammad Muammoiy navkarlaridan biri eding, dedi.

Ul hazrat bu gapni eshitib, ajablandilar va kulgan holda muborak tillariga quyidagi so'zlarni keltirdilar:

-Bu gapdan achchiqlanish va da'volanishning nima keragi bor!? Agar o'sha Xojani bu yerga chaqirib, ushbu da'voni ko'rib chiqilsa, uning aytganlari to'g'ri bo'lib chiqadi. To'g'ri gapdan xafa bo'lish esa aqlga to'g'ri kelmaydigan ishdur.

- Shundan so'ng ul hazratning o'zlari ham Sulton Sa'id Mirzo Sulton Abusa'id hukmronligi zamonida Amir Sulton Arhangiy bilan birga bo'lganliklari sababli shunday dedilar: Ilgari Amir Sulton Hasanning navkari bo'lgan men endilikda amirlik kabi muhim mansabga erishganligimga va noiblik (vazir) kabi yuqori lavozimga yetishganligimga qaramasdan, hali ham u kishining xizmatida bo'lishdan or qilmayman, balki agar imkoni bo'lsa, [u kishiga] oldingidan ham ko'proq xizmat qilib, o'zimni u kishining qullari jumlasidan hisoblayman. U yerda hozir bo'lganlar bu gaplarni eshitib, ul hazratning benihoya kamtarligi va xushf'elligidan hayratga tushdilar. O'sha yerda bo'lgan Amir Sulton Hasan xijolatda qoldi, janobi Mavlaviy esa uyalib qoldi, o'sha be'mani da'vosidan kechdi. " [14]

Xulosa va takliflar. Xulosa qilish mumkinki, Navoiy harbiylarni buyuk ishga bel bog'lagan shaxslar ekanligiga ishora berib, ularni orasida xizmatini vijdonan o'tagan harbiy xizmatchini avliyo deb talqin qilsa bo'ladi deb, ulug'laydi. Vatanni asosiy qo'riqlovchilari marldar ekanligiga ishora berib, ular ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida tinimsiz harakat qilish kerakligini alohida qayd etadi. Navoiy harbiylarni ma'lum bir toifalarga bo'linganligini takidlab, yuqori tajribali va muntazam qo'shin tarkibini tashkil etgan harbiylar hamda ma'lum davrlarda (urush holatida va hakoza) xalq orasidan favqulotda to'plangan harbiy xizmatchilar kabilarga ajratgan. Navoiy ma'naviy merosida mazkur davrda ham Amir Temur va temuriylar davlatidagi qo'shin tuzilishi va ba'zi an'analarni saqlanib qolganligiga shohidlik beradi. Qo'shinda turli millat ham elat vakillari tili, dini, kelib chiqishidan qat'iy nazar bir maqsad yo'lida hamjihatlikda harakat qilishlari, harbiy xizmatni o'tashda qo'rqqoqlik qilmasliklari, jonini Vatan uchun

fido qilib burchini bajarishga davat etadi. Qo'shinning muvofaqiyati qat'iy tartib va intizomga bog'liq bo'lib, askarlar irodasini toplash muhim ekanligini ta'kidlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Bir bo'lsak- yagona xalqimiz, birlashsak- Vatanimiz. 8 – jild. – Toshkent. : “O'zbekiston”. 2024. – 376 b.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul- abror . – Toshkent. Yangi asr avlodi - 2012.
3. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent. , Yangi asr avlodi. 2012.
4. Alisher Navoiy a srlarining lug'ati 4 tomlik. 4- tom. – T. 1968.
5. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo – T., 2000
6. Alisher Navoiy. Xazoyinul – moniy [Navodur – shabob] – T., 1989. II .
7. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr – T., 1996.
8. Alisher Navoiy. Saddi Iskandari – T., 1993.
9. Alisher Navoiy a srlarining lug'ati 4 tomlik. 4- tom. – T. 1968.
10. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at.- Toshkent , Fan, 1993.
11. Alisher Navoiy. Mahub ul – qulub. – Toshkent. Fan. – 1998.
12. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at.- Toshkent , Fan, 1993.
13. Dadaboev H. Amir Temurning harbiy mahorati. – T. 1996.
14. Alisher Navoiy Munshaot // Mukammal asarlar to'plami 14 jild. – T. 1998.
15. G'iyosiddin Xondamir. Marorim ul- axloq – T. G'ofur G'ulom nomidagi nashryot., 2015.